

XORAZM VILOYATINING TURIZM SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15851809>

Shomurodov Mansurbek Jonibek o'g'li

Urganch davlat universiteti "Geografiya" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xorazm viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollari tahlil qilinadi. Xorazm, o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, tabiiy go'zalligi, ziyorat maskanlari va hunarmandchilik an'analari bilan turizm sohasida katta imkoniyatlarga ega. Maqolada viloyatning turizm sohasidagi asosiy yo'nalishlar va ularni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan strategiyalar va chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar

Etnoturizm, ziyorat turizmi, tarixiy-madaniy turizm, ekoturizm, gastroturizm

Turizm - insonlarning doimiy hayot tashvishlaridan biroz chetlashish, yoki o'zları qiziqqan joylarni o'z ko'zları bilan ko'rish, dam olish uchun boshqa mamlakatlarga, tabiatning ajoyib go'shalariga amalga oshiradigan sayohatidir[1]. Bugungi kunda turizm sohasi nafaqat iqtisodiy daromad manbayi balki xalqaro hamkorlik va hududiy rivojlanishning muhum omiliga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan Xorazm viloyatining tarixiy, madaniy va tabiiy resurslarini to'g'ri boshqarish orqali hudud turizm salohiyatini oshirish zarurati kun tartibiga aylanmoqda.

Xorazm diyori insoniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan yurt. Jumladan, Xorazmiy, Beruniy, Zamashariy va ko'plab buyuk zotlar shu vohada yashab o'tgan va jahon ilm-u fani xazinasiga ulkan hissa qo'shganligi bilan butun dunyoda mashurdir. Xorazm qadimdan maftunkor lazgisi, ko'kka bo'y cho'zgan minoralari, jo'shqa Amudaryo bo'yidagi so'lim tabiatini bilan insonni o'ziga jalb qiladi. Xorazmni "Past tekislik yer", "Oziq-ovqat mamlakati", "Unumdar yer", ayrim tadqiqotchilar esa, "Urushga moyil", "Jangovor" ma'nosida ham tahlil qilib kelishgan. Bundan tashqari "Oriy qabilalari yeri", yoki "Xarri xalqining yeri" ma'nosini anglatadi kabi fikrlar ham mavjud. Xalqlarning xulosasiga ko'ra tahlil qiladigan bo'lsak, Xorazm - "xor" - quyosh, "azm"- yer, o'lka, ya'ni quyosh o'liasi degan fikr eng ishonchlisi deb sanaladi.

Turizmning asosiy yo'nalishlaridan biri etnoturizm bo'lib, u dunyo xalqlarining madaniyati, turmush tarzi va an'analarini o'rganishga qaratilgan etnik, til va madaniy tarkibiy qismlarni o'z ichiga olagan turizmning bir ko'rinishidir. Etnografik turizm ma'rifiy va ko'ngilochar maqsadlarda amalga oshiriladi. Ma'lum bir xalqning madaniyati va turmushi, kiyim-kechaklari, tili, xalq og'zaki ijodi, urfatdari, ananalari bilan tanishtiradi va sayyohlarning keng doirasi uchun mo'ljallangan bo'ladi. Ushbu turizm turi orqali o'z tarixini yaxshiroq bilib olish va ilgarigi davrlarga qaytish, u davrlardagi mahalliy hayot tarzi, an'analarini va madaniy merosni o'rganish mumkin. Har yili Xivada o'tkazilib kelinayotgan "Lazgi" xalqaro raqs festivali tarixiy madaniyatimizni ommalashtirishda muhum rol o'yamoqda. Xorazm viloyatining geografik joylashuvi va boy madaniyati ham etnografik turizmni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari hunarmandchilikni targ'ib qilish, mahalliy festivallarni rivojlantirish va turistlar uchun maxsus xizmatlar tashkil qilish orqali viloyatni turizm markaziga aylantirishimiz mumkin. Bu nafaqat iqtisodiy o'sishga hissa qo'shibgina qolmay, balki xalqimizning madaniy merosini saqlab qolishda va dunyoga tanitishda muhum ro'l o'ynaydi.[2]

Xorazm viloyatidagi tarixiy va me'moriy yodgorliklar jahonga mashhurdir. Amudaryoning o'ng sohilida 250 dan ziyod, so'l sohilida 60 ta qadimi shahar va qishloqlar o'rni topilgan. Qanqaqal'a, Qo'shqaqal'a, Tuproqqaqal'a, Jingilja, Toshxirmon singari qal'a va istehkomlar o'rni bunga misol bo'la oladi.[3] Xorazm viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida madaniy tarixiy meros obyektlari ro'yxatga olinib, ularning faoliyati takomillashtirilib kelinmoqda

Xorazmda turizm sohasi O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4 maydagi PQ-2953-sonli "2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shaxrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qarori hamda boshqa tegishli meyoriy hujjatlar orqali tartibga solinadi.[3]

Viloyatning turistik salohiyatini oshirish uchun zamonaviy yondashuvlardan biri - turizm klasterlarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tizim turistik xizmatlar, mehmonxona biznesi, gastronomiya, transport va boshqa infratuzilma obyektlarini yagona tizimga birlashtirishga imkon yaratadi.[4] Turizm klasteri - bu ma'lum bir hududda joylashgan va bir-biriga bog'liq bo'lgan turistik obyektlar, xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, infratuzilma, mahalliy biznes hamda davlat va nodavlat tashkilotlarining o'zaro hamkorligi asosida shakllangan tizimdir.



Klaster muallif tomonidan yaratilgan

Tarixiy-madaniy turizm klasteriga : Ichan-Qal'a majmuasi, Muhammad Aminxon madrasasi, Kalta minor, Pahlovon Mahmud maqbarasi, Toshhovli saroyi, Avesto majmuasi

Gastronomik turizm klasteriga: Xiva milliy oshxonalar va Urganch shahridagi zamonaviy restoranlar va kafelar

Ekoturizm klasteriga: Amudaryoga yaqin hududlar, Yangibozor, Xonqa, Shovot, Bog'ot tumanlari

Ziyorat turizmi klasteriga: Xiva shahridagi Pahlovon Mahmud ziyoratgohi , Sayid Alouuddin ziyoratgohi, Juma masidi, Bog'ot tumanidagi Xoja Yusuf Hamadoniy ziyoratgohi va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Xorazm viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirishda bir qator imkoniyatlar mavjud. Viloyatning tarixiy va madaniy merosi, ziyorat maskanlari va mahalliy hunarmandchiligi sayyoqlar uchun katta qiziqish uyg'otadi. Ekoturizm va gastroturizm klasterlari viloyatni yangi turizm yo'naliishlari bilan boyitish imkonini beradi. Xorazmning turizm imkoniyatlarini to'liq amalga oshirish uchun infratuzilma, xizmatlar va marketing sohalarini rivojlantirish zarur. Shu bilan birga, viloyatda turizmni rivojlantirish uchun mahalliy resurslar va aholini jalb etish muhim omillardan biri bo'lib, bu viloyatning iqtisodiy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Matchanova A.E, Xayitova Q. B "Xorazm viloyatida turizmning noan'anaviy turlarini rivojlantirish imkoniyatlari", SCIENCE AND EDUCATION 133-134-b.
- 2.A.Matchanova, M.Shomurodov "Xorazm viloyatida etnografik turizmni rivojlantirishning geografik xususiyatlari" O'zMU xabarlari jurnali
- 3.Jumaniyozova O.Z "Xorazm viloyatida tarixiy-madaniy turizmning o'rni", "MEDICAL TOURISM IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION - PROBLEMS, ROSPECTS AND INNOVATIONS" II INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE"
- 4.Abdullayev F.O, Shamuratov S.B "Xorazm viloyatida turistik xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatlari" "Экономика и социум"